

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FAROVON KELAJAK VA BUYUK DAVLAT GAROVIDIR

Kimsanova Saodatxon Bohodirjon qizi

Andijon Davlat Chet tillari instituti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17863568>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylangani, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchilik bazasi yaratilganligi, ushbu illat bilan murosasiz kurash olib borishimiz lozimligi xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, ma'muriy islohotlar, "inson omili", huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ichki nazorat tuzilmasi, huquqiy ekspertiza.

Аннотация. В данной статье говорится о том, что борьба с коррупцией стала приоритетным направлением государственной политики в Узбекистане, в нашей стране создана законодательная база в сфере борьбы с коррупцией, и мы должны вести бескомпромиссную борьбу с этим злом.

Ключевые слова: коррупция, административные реформы, "человеческий фактор", правосознание, правовая культура, структура внутреннего контроля, правовая экспертиза.

Abstract. This article says that the fight against corruption has become a priority area of government policy in Uzbekistan, our country has established a legislative framework in the field of combating corruption, and we must wage an uncompromising fight against this evil.

Key concepts: corruption, administrative reforms, "human factor", legal awareness, legal culture, internal control structure, legal expertise.

“Korrupsiya illati hatto eng qudratli va eng kuchli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgan va to'liq parokanda qilgan”.

Sh.Mirziyoyev.

Yurtboshimizning yuqorida keltirilgan fikrlaridan korrupsiya degan illatning nechog'lik salbiy illat ekanligi yaqqol sezilib turibdi. Shu sababli ham, hozirda to'la ishonch bilan aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan siyosiy-huquqiy hujjatlar, ma'muriy islohotlar va "inson omili"ni kamaytirishga qaratilgan "raqamlashtirish" jarayonlari misolida ko'rish mumkin.¹

Prezidentimiz olib borayotgan siyosatining mazmunini tashkil qiladigan zamon bilan hamnafas yashash, ijobiy o'zgarishlarga ochiqlik, inson qadrini ta'minlash, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning xalq oldidagi mas'ulligi kabi tamoyillarga asoslangan qarorlar mamlakatning ertasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bunday jarayonlarga xalqning to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgani, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa fuqarolik institutlari vakillarining faol ishtiroki sababli ham jamiyatning faollashyotgani sezilib bormoqda.

Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, "mamlakatimizdagi oxirgi yillardagi o'zgarishlar natijasida O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z modelini yaratmoqda.

¹ A.Yusupov. Korrupsiyaga qarshi kurash – kechiktirib bo'lmaydigan vazifa. <https://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/korruptsiaga-karsi-kuras-kechiktirib-bulmajdigan-vazifa>.

Mazkur natijalarning asosiy ijrochilari korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul organlar, davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va keng jamoatchilik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida "So'nggi besh yilda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga olib chiqilganligini ta'kidlab, bu borada aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, tizimli preventiv choralarni kuchaytirish zarurligi, korrupsiya balosiga qarshi faqat davlat-huquqiy choralar bilangina emas, balki butun jamiyat qarshi kurashmog'i kerakligi" qayd etildi".²

Qayd etish lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirishning dastlabki muhim qadami bu – davlatimiz rahbari tomonidan lavozimga kirishgan dastlabki kunlardan oq, ya'ni 2017-yil 3-yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning imzolangani bo'ldi.

Ushbu qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining uch ta ustuvor yo'nalishi belgilandi:³

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipini ta'minlash.

Ushbu o'tgan vaqt mobaynida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish mexanizmi joriy etildi; davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, bu borada ommaviy axborot vositalari rolini oshirishga qaratilgan muhim konseptual hujjatlar qabul qilindi; bir-birini takrorlovchi vakolatlarga ega davlat organlarini optimizatsiya qilish, ularning ixchamligini oshirish, davlat boshqaruvida byurokriyani kamaytirish bo'yicha choralar ko'rildi; davlat boshqaruvi tizimida "inson omili"ni kamaytirish hamda davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari yanada rivojlantirildi; davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi; "Korrupsiyadan holi qonunchilik" tamoyili asosida qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etildi; korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan soha va tarmoqlarda "Korrupsiyasiz soha" va "Korrupsiyasiz hudud" kabi loyihalar kapital qurilish, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat xaridlari tizimlari⁴da ham muntazam tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bundan tashqari Joriy yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash,

² U.To'xtasheva. Korrupsiyaga qarshi kurash – O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi. <https://uzbekistan.org/uz/korrupsiyaga-qarshi-kurash-o'zbekiston/3431/>

³ O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/3088008>.

⁴ O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza. Axborot tahliliy ma'lumot. Loyiha Rahbari: A. Burxanov / O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 2022.-60 b.

shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi tizimni joriy etib, ushbu masalaga jamoatchilik, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarini keng safarbar etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni⁵ qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan bir qator mutasaddi tashkilotlarga vazifa va topshiriqlar yuklatildi.

Ya'ni, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash har yili hududlar kesimida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, prokurorlar va ichki ishlar organlari boshliqlari bilan birgalikda korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan, maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish bo'yicha "yo'l xarita"sini ishlab chiqib, ijrosi ustidan nazoratni ta'minlash; Oliy Majlis palatalariga har yili byudjetdan eng ko'p mablag' oladigan uchta vazirlik va idorada korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish, vazir va hokimlar lavozimiga nomzodlar tegishlicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlarida ko'rib chiqilayotganda ular tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq reja himoya qilinishiga oid tartibni qonun hujjatlarida belgilash, xalqaro tajribani o'rganib, kibermakonda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish kabi masalalar shular jumlasidandir.

So'zimiz yakunida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar korrupsiyadan holi, o'z milliy manfaatlarimizni ko'zlab, davlatimiz ravnaqi hamda fuqarolar farovonligi yo'lida shaffof va adolatli turmush tarzini birgalashib yaratsak, yuksak natijalar berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/3088008>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7486412>.
4. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza. Axborot tahliliy ma'lumot. Loyiha Rahbari: A. Burxanov / O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 2022.-60 b.
5. A.Yusupov. Korrupsiyaga qarshi kurash – kechiktirib bo'lmaydigan vazifa. <https://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/korruptsiaga-karsi-kuras-kechiktirib-bulmajdigan-vazifa>.
6. U.To'xtasheva. Korrupsiyaga qarshi kurash – O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi. <https://uzbekistan.org/uz/korrupsiyaga-qarshi-kurash-o'zbekiston/3431/>.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7486412>.